

10. Ta’lim va moliyaviy savodxonlik. Islom moliya institutlari jamiyatning moliyaviy savodxonligini tarbiyalash va oshirishda faol ishtirok etishi mumkin. Mijozlarga islom moliya operatsiyalari tamoyillari bo’yicha ma’lumot berish moliyaviy resurslardan yanada mas’uliyat bilan va oqilona foydalanishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Islom banklari va an’anaviy banklar ikki xil turdagi moliya institutlari bo’lib, ularning har biri o’ziga xos xususiyatlarga ega. Islom banklari o’z faoliyatining xususiyatlarini belgilovchi islom qoidalariga asoslanadi, an’anaviy banklar esa umume’tirof etilgan moliyaviy me’yorlarga muvofiq ishlaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatdiki, islom banklari islom qoidalariga rioya qilishga qaratilgan risklarni boshqarishning o’ziga xos tuzilmasiga ega bo’lib, bu ularning samaradorligi va moliyaviy operatsiyalar samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байдаулет Е.А. *Исламий молия асослари.* – Т.: “O’zbekiston” НМИУ 2019. – 427 б.
2. https://www.globalethicalfinance.org/wp-content/uploads/2022/10/Financing_A_Sustainable_Future_Web.pdf
3. *Islamic Finance Outlook 2022 edition.* URL:
<https://www.spglobal.com/ratings/en/research/pdf-articles/islamic-finance-outlook-2022-28102022v1.pdf>

SUKUK ISLOM QIMMATLI QOG’OZLARIGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Norboyeva Maftuna Shavkat qizi
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi
islom iqtisodiyoti va moliyasi yo’nalishi magistranti

Islom moliyasi bugungi kunga kelib, butun dunyoda qiziqish uyg’otayotgan nafaqat musulmon davlatlar balki nomusulmon bo’lgan davlatlarning ham bu tizimni moliyalashtirishning muqobil varanti sifatida foydalanayotganining guvohi bo’lishimiz mumkin. O’rta Osiyo mamlakatlari jumladan, O’zbekistonda ham bu tizimni rivojlantirish, unga doir qonunchilik bazasini yaratish, mutaxassislarni tayyorlash va shunga o’xshash bir qancha vazifalar bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo’lib kelmoqda. O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, banklar, investitsiya fondlarining rivojlanishi muhim. Aholimizning 90 % dan ortiq qismini musulmonlar tashkil etishi, ularning an’anaviy moliyaviy vositalardan juda kam qismi foydalanishi ushbu tizimni rivojlantirishga turtki bo’lmoqda. Shu boisdan aholining bo’sh turgan pullarini real iqtisodiyotga jalb qilishda islom moliya vositalaridan foydalanish muhim.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda Prezidentimiz tomonidan imzolangan 2022-2026-yillarga mo’ljallangan “yo’l xaritasida” islomiy mahsulotlar va xizmatlar hamda ularni amalga oshiruvchi tashkilotlarni soliqqa tortishning o’ziga xos usullarini ishlab chiqish, islom moliyasi asosida joriy etilgan

omonatlarni himoya qilishga doir huquqiy asosni yaratish yoki moslashtirish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilishi tilga olingan.

Islom moliya tizimida uning ajralmas bir qismi bo'lmish sukuk moliyalashtirish manbai aktivlarga asoslanganligi sababli an'anaviy qimmatli qog'ozlar bozori qatorida o'zining raqobatbardoshligini ko'rsatib kelmoqda. Quyida islom qimmatli qog'ozlarining tarixi, rivojlanish tendensiyalari, davlatlar miqyosida uni chiqarish bo'yicha yo'l-yo'riqlar kabi bir qator masalalarga bag'ishlangan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari ko'rib chiqilgan.

Islom moliyasi va uning rivojlanish istiqbollari o'zining hissalarini qo'shib kelayotgan olimlardan M.Kabir Hassan, Siraj Aliyu va boshqalar “Islomiy investitsiyaga oid adabiyotlarni ko'rib chiqish” nomli ilmiy ishida empirik tahlillar asosida islomiy investitsiya tadqiqotlari ko'rib chiqqan va kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadqiqot yo'nalishlariga tavsiya bergan. Maqolada qayd etilishicha, ba'zi adabiyotlarda islomiy va an'anaviy investitsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar aniq ko'rsatilmagan. Shuning uchun, eski tahrirdagi va joriy adabiyotlarni tematik tasniflar asosida ko'rib chiqishni tavsiya bergan.

Bruce Hearn, Jenifer Piesse, Roger Strangelarning “Islom taraqqiyotini moliyalashtirishda fond bozorining roli: Sudandan dalillar” (The role of the stock market in the provision of Islamic development finance: Evidence from Sudan) nomli maqolasida o'zaro listing orqali shariatga to'liq amal qiluvchi firmalarning kapital xarajatlarini kamaytirish hamda mikrokredit tashkilotlarini fond bozoriga qarama qarshi tashkilot sifatida qaralgan. O'rta Sharq va Afrikaning hududiy fond bozorlari tahlili o'rganib chiqilgan. Xartum fond birjasining Sudan iqtisodiyotiga ta'sirini baholashgan va shariatga to'liq mos keladigan Sudan moliya tizimidagi yirik firmalar uchun mavjud bo'lgan moliyalashtirish imkoniyatlarini Sudan telekommunikatsiya kompaniyasi misolida ko'rib chiqishgan.

Nasution Lokot Zeyn, Moliyaviy sektor markazi (Indoneziya) tadqiqotchisi o'zining korporativ sukukni rivojlantirish muommolari va Indoneziyadagi amaliy tadqiqotlar haqidagi maqolasida Indoneziyada korporativ sukukni rivojlantirish masalalari, muommolari hamda korporativ rivojlanish strategiyasini shakllantirishni o'rgangan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, sukuk emissiya qiluvchilar sukukning xususiyatlarini tushinmaganliklari sababli emissiya qilishni maqsad qilishmagan. Sukuk emissiya qiluvchi va bozordagi talab miqdori bilan bog'liq muommolar yuzaga kelishidan qo'rqishgan. Korporativ sukuk qoidalarini aniqlash sukuk emissiyasi jarayoni murakkabligini kamaytiradi degan fikrni bildirgan. Ba'zi davlatlarda suveren davlat sukuklarini rivojlangan fond birjalarida chiqarishgan. Bu garchi ko'p xarajat va harakat talab qilgan bo'lsa ham chiqarilgan sukuklarning sotilishi bilan bog'liq xavflarning oldini olgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki: islom moliyasi instrumentlarini joriy etishda o'ziga yarasha risklarni inobatga olgan holda ushbu tizim rivojlangan Arab davlatlari, Malayziya, Bahrayn, Qozog'iston va boshqa davlatlar tajribasini o'rgangan holda O'zbekistonda ham tatbiq etilishi kerak. Bu tizim mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanishi, yangi sohalar vujudga kelishiga ijobiy ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PF-214-sonli *Farmoni* tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son *Farmoni*, 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir (2021) Islom moliyasi: O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar. Iqtisodiyot va ta’lim, 4-son, 146-158 bet

Bayauletov. E.A (2019) Islom moliya asoslari. O‘quv qo‘llanma

M. Kabir Hassan, Sirajo Aliyu, Andrea Paltrinieri and Ashraf Khan (2018), A Review of Islamic Investment Literature, The Economic Society of Australia doi: 10.1111/1759-3441.12230

Nasution Lokot Zein (2018), Researcher Financial Sector Policy Center, Issues and challenges for developing corporate sukuk: lessons from an Indonesian case study, RJOAS, 2(74)

Slim Mseddi (2022), International issuance of Sukuk and companies' systematic risk: An empirical study, Copyright 2022 Borsa Istanbul Anonim Sirketi. Published by Elsevier

**MAMLAKATIMIZDA MUDORABA SHERIKCHILIGINI QO‘LLASHNING
AFZALLIKLARI**

*PhD, dots. **Batirova N.***

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

Norqulov Sodik Isoq o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Bugungi zamonamizda iqtisodiy jarayonlar beqaror ravishda o‘zgarib borishi insonlarning bu borada dunyoqarashini o‘zgartirishga undaydi. Bugungi kunda iqtisodiyot haqida gap ketar ekan, eng ko‘p ishlatiladigan iboralardan biri bu- investitsiyadir. Darhaqiqat investitsiya bu iqtisodiyotda juda katta rol o‘ynaydigan omilki, investitsiyaga erishish uchun odamlar bugungi kunda turli vositalardan foydalanmoqdalar. Islom iqtisodiyotida keng qo‘llaniladigan mudoraba instrumenti bugungi kunda investitsiya jalb qilmoqchi bo‘lgan juda ko‘p tadbirkorlarimizga qo‘l keladi. Mudoraba instrumenti insonlar uchun qulay tomoni shuki bunda bir tomon sarmoyador ikkinchi tomon tadbirkor yoki mudorib bir-biriga ehtiyoji seziladi. Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiyaga muhtoj tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lib turgan insonlar deyarli har qadamda topiladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda inflyatsiya sababli tadbirkorlar o‘z mablag‘larini biror biznesga yo‘naltirish kerakligini anglab yetishmoqda. Chunki pul qadrsizlanib borishi bugungi kunda sezilarli darajada ta’sir qilmoqda. Islom moliyasi nuqtayi nazaridan mudoraba instrumenti xalqimizga juda foydali mahsulotdir. Mudorabada ikki tomonning ham tashabbuskorligi juda muhim rol o‘ynaydi. Chunki ikkala tomonda ham amalga oshirish mushkul bo‘lsa-da, riski kam bo‘lgan imkoniyatlar mavjuddir. Masalan, sarmoyador biror mulk olib ijara tamoyili asosida ish yuritishi mumkin, mudorib esa ijaraga ishga yollanuvchi bo‘lib mablag‘ o‘lishi mumkin. Bundan bilamizki